# TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA PASSIVLAR TARKIBI VA RESURS BAZASI BARQARORLIGINI BAHOLASH

**Saidov Doniyor Abdullayevich**
«Bank ishi» kafedrasi dotsenti
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
E-mail: saidovdoniyor2022@gmail.com
ORCID: 0009-0007-3605-2274
https://doi.org/10.5281/zenodo.22873712

**Annotatsiya.** Maqolada tijorat banklari resurs bazasini passivlar tarkibi orqali baholashning ikki o'lchamli yondashuvi asoslanadi. O'n to'rtta bankning 2021–2025-yillar ma'lumotlari asosida passivlar tarkibi bo'yicha ikki qutbli tuzilma shakllangani statistik jihatdan aniqlanib, resurs bazasi barqarorligini baholash va mustahkamlash yo'nalishlari ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** moliyaviy barqarorlik, bank passivlari, resurs bazasi, mijozlar depozitlari, kredit-depozit nisbati, moliyalashtirish konsentratsiyasi.

## Kirish

Tijorat bankining resurslari balansda passivlar tarkibida aks ettiriladi, shu sababli resurs bazasini baholash amalda majburiyatlar tuzilmasini tahlil qilishga borib taqaladi. Ushbu tuzilma barqarorlikning mustaqil determinanti hisoblanadi: majburiyatlarning barqarorligi zarba yuz berganda bankka vaqt resursini beradi, beqarorligi esa aktivlar tomonidagi muammoni likvidlik inqiroziga aylantiradi. Muallif tomonidan o'tkazilgan panel ekonometrik tahlilda depozitlarning jami majburiyatlardagi ulushi koeffitsiyenti barcha spetsifikatsiyalarda bir foiz darajasida statistik ahamiyatli bo'lib chiqqani ushbu pozitsiyani tasdiqlaydi.

Resurs bazasini baholashda ikki o'lchamni farqlash zarur. Yetarlilik - kredit portfelining o'z depozit bazasi bilan qoplanish darajasi, u kredit-depozit nisbati orqali o'lchanadi. Barqarorlik - majburiyatlarning tarkibiy sifati, ya'ni ular qaysi manbalardan shakllangani va qayta jalb qilinish ehtimoli. Ikki o'lcham bir-birini almashtirmaydi: resurs bazasi yetarli bo'lgan holda barqaror bo'lmasligi mumkin va bu aynan zarba sharoitida ro'yobga chiqadi.

D. Diamond va F. Dybvig klassik modelida muddat transformatsiyasi bankning asosiy funksiyasi bo'lishi bilan bir qatorda uning tabiiy zaiflik manbai ekani ko'rsatilgan [3]. So'nggi o'n yilliklarda tadqiqot diqqati transformatsiyaning hajmidan uning manbasiga siljidi: A. Demirgüç-Kunt va H. Huizinga depozitdan tashqari moliyalashtirishga tayanish bank tavakkalchiligini oshirishini [2], R. Huang va L. Ratnovski ulgurji mablag'larning inqiroz sharoitida tez qaytib ketishini [4], P. Bologna esa passivlar tuzilmasi ko'rsatkichlari banklarning barbod bo'lishini kapital ko'rsatkichlaridan kuchliroq bashorat qilishini [1] asoslashgan. Mahalliy adabiyotda Sh.Z. Abdullayeva bank moliyaviy barqarorligini kapital yetarliligi, likvidlilik va to'lovga qobiliyatlilik bilan uzviy bog'liq holda talqin qiladi [5]; O.B. Sattarov bank tizimi barqarorligini banklarning o'z funksiyalarini to'laqonli bajara olish darajasini saqlagan holda rivojlanishga intilishi sifatida ta'riflaydi [6]; F.K. Xolmamatov esa kapital bazasi, likvidlilik va daromadlilikni asosiy baholash mezonlari deb hisoblab, tahlilni Bazel qo'mitasi talablari asosida olib borish zarurligini ta'kidlaydi [7].

## Metodologiya

Tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta'minlashda passivlar tarkibi va resurs bazasi barqarorligini baholashda taqqoslama tahlil, statistik tahlil, qiyoslash, ilmiy abstraksiyalash, analiz, sintez kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

## Natijalar va muhokama

Ushbu tezisda passivlar tuzilmasi odatda «depozit - ulgurji bozor» o'qi bo'yicha qaraladi. O'tish iqtisodiyoti sharoitida esa uchinchi manba hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi - maqsadli tarzda jalb qilinadigan mablag'lar; ular ma'muriy qaror asosida taqsimlanadi va shartlari bank tomonidan boshqarilmaydi. Amaldagi likvidlik normativlari majburiyatlarning barqarorligini muddat bo'yicha baholaydi, biroq manbasini hisobga olmaydi: maqsadli mablag'lar ular hisobida barqaror deb tasniflanadi, holbuki qayta jalb qilinishi ma'muriy qarorga bog'liq. Mazkur bo'shliqni to'ldirish uchun moliyalashtirish manbalari konsentratsiyasi indeksi taklif etiladi: FCI = $\Sigma w_i^2$, bu yerda $w_i$ - i-manbaning jami majburiyatlardagi ulushi; uning teskari qiymati samarali manbalar sonini beradi.

Empirik tahlil o'n to'rtta tijorat bankining 2021–2025-yillar uchun MHXS bo'yicha tuzilgan, auditdan o'tgan hisobotlariga asoslanadi; jami yetmishta bank-yil kuzatuvi qamrab olingan, tanlanma bank tizimi aktivlarining qariyb 83 foizini qamraydi (1-jadval).

**1-jadval**

**Passivlar tarkibi va resurs bazasi barqarorligi ko'rsatkichlari, tanlanma bo'yicha o'rtacha, foizda**

| Yil | Mijozlar depozitlari | Jalb qilingan mablag'lar | Banklar oldidagi majburiyat | Boshqa majburiyatlar | LDR | FCI | Samarali manbalar soni |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 2021 | 45,9 | 42,4 | 4,6 | 7,1 | 242,0 | 0,398 | 2,52 |
| 2022 | 44,4 | 39,0 | 7,6 | 9,0 | 229,3 | 0,363 | 2,75 |
| 2023 | 43,0 | 41,4 | 5,8 | 9,8 | 250,3 | 0,369 | 2,71 |
| 2024 | 45,1 | 40,2 | 5,6 | 9,1 | 220,8 | 0,376 | 2,66 |
| 2025 | 46,7 | 39,6 | 4,8 | 8,9 | 197,8 | 0,385 | 2,60 |
| **O'zgarish** | **+0,8** | **−2,8** | **+0,2** | **+1,8** | **−44,2** | **−0,013** | **+0,08** |

Izoh: LDR - kredit-depozit nisbati, FCI - moliyalashtirish manbalari konsentratsiyasi indeksi. Manba: muallif hisob-kitoblari.

Jadval ikki o'lchamning ajralishini ko'rsatadi. Yetarlilik bo'yicha holat yaxshilangan: kredit-depozit nisbati besh yilda 44,2 foiz bandga pasaygan. Barqarorlik bo'yicha o'zgarish deyarli yo'q - depozitlar ulushi atigi 0,8 foiz bandga oshgan, maqsadli mablag'lar hamon majburiyatlarning qariyb yarmini tashkil etadi, samarali manbalar soni 2,52 dan 2,60 ga ko'tarilgan. Demak, kredit-depozit nisbatining yaxshilanishi passivlar tarkibining o'zgarishi natijasi emas, kreditlash sur'atining sekinlashuvi natijasidir. Ikki o'lchamni birgalikda kuzatmaslik siklik yaxshilanishni tuzilmaviy yaxshilanish sifatida noto'g'ri talqin qilishga olib keladi.

Banklar kesimidagi tahlil passivlar tarkibida keskin tafovut mavjudligini ko'rsatdi (2-jadval).

**2-jadval**

**Mijozlar depozitlarining jami passivlardagi ulushi, foizda**

| Bank | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 | 2025 | O'rtacha | LDR, o'rt. |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| BRB | 23,4 | 22,3 | 23,5 | 22,4 | 31,0 | 24,5 | 337,5 |
| Asakabank | 19,3 | 26,5 | 24,0 | 27,2 | 36,0 | 26,6 | 319,2 |
| O'zsanoatqurilishbank | 27,8 | 27,6 | 22,1 | 28,0 | 37,0 | 28,5 | 311,4 |
| Xalq banki | 58,0 | 23,1 | 19,2 | 22,4 | 19,8 | 28,5 | 300,9 |
| Turonbank | 28,2 | 27,2 | 30,3 | 30,5 | 37,8 | 30,8 | 277,9 |
| Agrobank | 39,9 | 31,1 | 29,0 | 30,3 | 36,5 | 33,4 | 307,3 |
| O'zmilliybank | 29,8 | 37,1 | 31,5 | 33,0 | 42,2 | 34,7 | 254,2 |
| Mikrokreditbank | 25,6 | 41,0 | 42,8 | 38,5 | 28,5 | 35,3 | 284,6 |
| Ipoteka-bank | 38,7 | 32,7 | 30,8 | 40,4 | 39,3 | 36,4 | 223,9 |
| Hamkorbank | 41,9 | 47,5 | 44,8 | 48,8 | 51,8 | 47,0 | 184,2 |
| Ipak Yo'li banki | 54,3 | 61,5 | 57,4 | 60,7 | 61,8 | 59,1 | 126,8 |
| Aloqabank | 63,2 | 54,3 | 63,7 | 65,1 | 50,2 | 59,3 | 121,9 |
| Trastbank | 94,0 | 94,1 | 93,2 | 93,5 | 90,3 | 93,0 | 66,8 |
| Kapitalbank | 98,0 | 95,9 | 89,7 | 90,2 | 91,5 | 93,1 | 76,0 |
| **O'rtacha** | **45,9** | **44,4** | **43,0** | **45,1** | **46,7** | **45,0** | **228,0** |
| **Mediana** | **39,3** | **34,9** | **31,1** | **35,8** | **38,5** | **35,8** | **244,5** |

Ko'rsatkich 19,2 foizdan 98,0 foizgacha tarqalgan: bir qutbda depozitlar passivlarning 90 foizdan ortig'ini tashkil etuvchi banklar, ikkinchi qutbda esa depozitlar ulushi 24–29 foiz, jalb qilingan maqsadli mablag'lari 68–75 foiz bo'lgan banklar joylashgan. Ikki qutblilik statistik jihatdan tasdiqlandi: bimodallik koeffitsiyenti 0,630 va 0,694 ni tashkil etib, bir modali taqsimot uchun kritik hisoblangan 0,555 chegarasidan yuqori. Tafovut mulkchilik shakli bilan tizimli bog'liq: davlat ulushi yuqori banklarda depozitlarning o'rtacha ulushi 33,5 foizni, xususiy va xorijiy ishtirokli banklarda 65,7 foizni tashkil etadi (Mann-Uitni $U = 114,5$; $p < 0,001$; effekt hajmi 0,80). Depozitlar ulushi va kredit-depozit nisbati o'rtasidagi bog'liqlik deyarli funksional (Pearson korrelyatsiyasi −0,944), ya'ni yetarlilik ko'rsatkichi amalda passivlar tarkibi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalar shakllantiriladi. Resurs bazasini baholashda yetarlilik va barqarorlik o'lchamlari ajratilishi shart, chunki ular turli yo'nalishda o'zgarishi mumkin. Passivlar tarkibi bo'yicha tizimda ikki xil model parallel mavjud, shu sababli o'rtacha ko'rsatkich guruhlarning haqiqiy holatini yashiradi va nazorat siyosati differensiallashtirilishi lozim; bir xil manbaga tayanuvchi banklar guruhida esa resurs bazasi nomutanosibligi korrelyatsiyalangan tizimli tavakkalchilikka aylanadi. Amaliy jihatdan uch taklif asoslanadi: ichki transfer narxlash stavkasini mablag'ning manbasiga ham bog'lash; amaldagi likvidlik normativlarini konsentratsiya indeksi bilan to'ldirib, kritik qiymatdan oshgan banklar uchun qo'shimcha likvidlik buferi talabini belgilash; maqsadli moliyalashtirish dasturlarini bosqichma-bosqich bank balansidan tashqariga chiqarish.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Bologna P. Structural funding and bank failures // Journal of Financial Services Research. – 2015. – Vol. 47. – P. 81–113.
2. Demirgüç-Kunt A., Huizinga H. Bank activity and funding strategies: the impact on risk and returns // Journal of Financial Economics. – 2010. – Vol. 98, No. 3. – P. 626–650.
3. Diamond D., Dybvig P. Bank runs, deposit insurance, and liquidity // Journal of Political Economy. – 1983. – Vol. 91, No. 3. – P. 401–419.
4. Huang R., Ratnovski L. The dark side of bank wholesale funding // Journal of Financial Intermediation. – 2011. – Vol. 20, No. 2. – P. 248–263.
5. Abdullayeva Sh.Z. Bank ishi: darslik. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2017. – B. 115–121, 570–578.
6. Sattarov O.B. Bank tizimi barqarorligini ta'minlash metodologiyasini takomillashtirish: i.f.d. diss. avtoref. – Toshkent, 2018. – 67 b.